

IJTIMOIY TARMOQLARDA NUTQ MADANIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI

Jo'rayeva Nodira Jumanazarovna

Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti tyutori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14825890>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda qo'llaniladigan nutq madaniyatining o'rni va ahamiyati shuningdek, blogger, jurnalistlar nutqining ta'sirchanligini oshirish yo'llari yoritib berilgan. Maqola davomida nutq samaradorligiga salbiy ta'sir etadigan holatlar va jurnalistlar nutqining kommunikativ sifatlari hamda nutqni takomillashtirish yo'llari haqida so'z boradi. Maqola so'ngida asosli fikr-mulohazalar, xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: madaniy nutq, nutq ma'daniyati, jurnalist, blogger, lingvistik va nolingvistik mezonlar.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF SPEECH CULTURE IN SOCIAL NETWORKS

Abstract. This article discusses the role and importance of speech culture used in social networks, as well as ways to increase the effectiveness of the speech of bloggers and journalists. The article discusses situations that negatively affect the effectiveness of speech, the communicative qualities of journalists' speech, and ways to improve speech. At the end of the article, substantiated comments, conclusions, and suggestions are given.

Keywords: cultural speech, speech culture, journalist, blogger, linguistic and non-linguistic criteria.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение речевой культуры, используемой в социальных сетях, а также пути повышения эффективности речи блогеров и журналистов. В статье рассматриваются ситуации, негативно влияющие на эффективность речи, коммуникативные качества речи журналистов, а также пути улучшения речи. Статья завершается содержательными комментариями, выводами и предложениями.

Ключевые слова: культурная речь, культура речи, журналист, блогер, лингвистические и нелингвистические критерии.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Facebook, Instagram, Twitter, TikTok kabi platformalarda o'z fikrimizni ifodalash, yangiliklarni baham ko'rish va do'stlarimiz bilan muloqot qilish oddiy holga keldi. Ammo, bu tarmoqlarda faollik ortishi bilan ona tilimizning buzilishi kabi muammolar ham yuzaga kelmoqda. Bu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda ona tilining holati va uni asrab-avaylash zarurati haqida so'z yuritiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda yozish uslubi ko‘pincha qisqa va sodda bo‘lishi talab etiladi. Bu esa tilimizning qoidalariga va to‘g‘ri yozuviga zid bo‘lishi mumkin. Masalan, so‘zlarni qisqartirish, imlo va punktuatsiya qoidalariga e‘tibor bermaslik, “emodji”lar va boshqa simvollarni haddan tashqari ko‘p ishlatish tilni buzishga olib keladi. Yana bir muammo – xorijiy so‘zlarning ko‘p qo‘llanilishi.

Ingliz tilidan olingan so‘zlar va iboralar ona tilimizga kirib bormoqda, bu esa so‘z boyligimizning kamayishiga olib keladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda xorijiy so‘zlarning, ayniqsa ingliz tilidan olingan so‘zlarning keng tarqalishi ona tilimizni zaiflashtiradi. Misol uchun, "like", "share", "comment", "post" kabi so‘zlar so‘zlashuvda muntazam ishlatiladi. Ularning o‘rniga ona tilimizdagi to‘g‘ri va aniq atamalarini ishlatish zarur. Bunday o‘zgarishlar nafaqat tilni buzadi, balki til madaniyatining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda ona tilimizning buzilishi muammosiga qarshi kurashish uchun bir nechta choralar ko‘rish zarur. Birinchi navbatda, tilni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash kerak. O‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, yoshlar o‘rtasida tilga bo‘lgan hurmatni oshirish, va ijtimoiy tarmoqlarda to‘g‘ri yozuv va imlo qoidalariga amal qilishni targ‘ib qilish lozim.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda ona tilini asrab-avaylash bo‘yicha maxsus kampaniyalar o‘tkazish, yaratgan kontentda milliy tilni rivojlantirishga e‘tibor qaratish kerak.

O‘zbek tilining zamonaviy va to‘g‘ri ishlatilishi nafaqat tilni saqlab qolish, balki uning boyligini yanada oshirishga yordam beradi.

Quyida madaniy nutqning bir nechta komponentlarini ko‘rib o‘tamiz.

Nutqning maqsadga muvofiqligi madaniy nutqdan talab qilinuvchi asosiy mezonlar bilan belgilanadi. Madaniy nutqning lingvistik va nolingvistik mezonlariga quyidagilar kiradi: nutqning to‘g‘riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyliigi va tozaligi (sofligi), nutqning ta’sirchanligi (ifodaliligi), nutqning o‘rinlilik. Madaniy nutq yuzaga kelishi uchun bu o‘lchovlardan o‘z me’yorida foydalanish zarur.

Nutqning sofligi ham madaniy nutqning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Nutqning sofligi ba’zi ilmiy adabiyotlarda nutqning tozaligi tarzida tilga olinadi. Nutqning sofligi, tozaligi deganda adabiy til me’yorlariga mos holda fikr ifodalash tushuniladi. Bu masala uzoq davrlardan beri notiqalar, olimlar, yirik so‘z san’atkorlarini qiziqtirib kelmoqda.

Nutq shaxsga xos hodisa bo‘lganligi sababli, unda ijtimoiy axloq me’yorlarini buzuvchi til birliklari ham ishlatilishi mumkin. Madaniy nutqning sofligi, tozaligiga quyidagi unsurlar halaqit beradi:

1. Fonetik-orfoepik jihatdan so‘z va qo‘shimchalarning noto‘g‘ri talaffuz etilishi, urg‘uni o‘rinsiz qo‘llash.

2. Leksik-grammatik tomondan shevaga xos soʻz va shakllarning, ibora va soʻz birikmalarining ishlatilishi.

3. Oʻrinsiz qoʻllangan chet soʻz va soʻz birikmalari (varvarizmlar).

4. Jargonlar.

5. Vulgarizmlar.

6. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan bekorchi-parazit soʻzlar.

7. Kanselyarizmlar.

Oʻqituvchining nutqi yuqorida sanab oʻtilgan unsurlardan holi boʻlgandagina madaniy nutq hisoblanadi.

Nutqning tozaligi, tilning sofligini buzuvchi nomeʼyoriy unsurlardan biri-fonetik-orfoepik jihatdan soʻz va qoʻshimchalarni notoʻgʻri talaffuz etishdir. Buxoroga boʻldim, aslida Buxoroda boʻldim kabi.

2. Tilning sofligiga putur yetkazuvchi faktorlardan yana biri soʻz va qoʻshimchalarni mahalliy lashtirib, sheva xos holda talaffuz etishdir. Masalan: Parhod (Farhod), kelopti (kelyapti), kelli (keldi), koʻrdiz-ku? (koʻrdingizku-ku?) kabi.

Nutqimizda x va h harflarini, x va q harflarini talaffuz etishda, ishlatishda ham xatoliklar yuzaga keladi: xol (yuzdagi xol) hol (kishining ahvoli), tarix (fan) tariq (oʻsimlik).

Shevaga xos soʻzlar adabiy til meʼyori doirasiga kirmasa ham, soʻzlashuv va badiiy nutq uslublarida ishlatiladi. Ayniqsa, “badiiy adabiyotda tasviriy vosita-mahalliy kolorit yaratish, qahramonlar nutqini individuallashtirish vazifasini bajardi. Shu bilan bir qatorda adabiy tilning sheva hisobidan boyib borishiga taʼsir koʻrsatadi”.¹

Demak, ijtimoiy tarmoqlarda jurnalist va bloggerlar nutqi mahalliy shevaga xos soʻz va iboralardan holi boʻlishi ularning nutqi sof, toza ekanligidan dalolat beradi. Urgʻuni notoʻgʻri ishlatish ham adabiy til meʼyorlarining buzilishiga olib keladi. Masalan: keldi-adabiy talaffuzda urgʻu i harfiga tushsa, baʼzi (Qiziltepa, Buxoro, Romitan) shevalarda e harfiga tushurib talaffuz etiladi.

Shevaga xos soʻzlarni nutqqa oʻrinsiz olib kirish nutqni buzadi. Ammo T.Qudratov fikriga koʻra, “adabiy tilda varianti boʻlmagan, ifodalanayotgan fikrni ravshanlashtirish uchun zarur soʻz va grammatik vositalarni, ularga izoh bergan holda, nutqqa olib kirish unga sayqal bagʻishlaydi.

Varvarizmlar-oʻrinsiz ishlatiladigan boshqa tilga oid soʻzlar boʻlib, xalqaro terminlar bundan mustasnodir. Rus tiliga oid soʻzlar oktabr toʻntarishidan soʻng oʻzbek tiliga koʻplab kirib keldi, bugungi kunda esa ingliz tiliga xos soʻzlar nutqimizga kirib kelmoqda: Privet-xello kabi Varvarizm lotincha-kelgindi soʻzidan olingan boʻlib, uning turlariga quydagilar kiradi: Gallinizm-

¹ Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002, 24- bet.

fransuz tilidan kirgan soʻzlar, germanizm-nemis, latinizm-latin, arabizm-arab, turkizm-turk tilidan kirgan soʻzlar kabi.

Yozuvchi asar qahramonlarining tilini individuallashtirish, oʻziga xos xususiyatlarini alohida taʼkidlash maqsadida varvarizmlardan foydalanadi. Masalan oʻzbek shoir va yozuvchilaridan Abdulla Qodiriy, Gʻafur Gʻulomlar arabcha va forsha soʻzlardan keng foydalanganlar. Bu hodisa Navoiy asarlariga ham xos (hodisa) boʻlib, shoir asarlari arabcha, forsha, soʻzlardan iborat boʻlgan matnlar koʻp uchraydi. Shoir va yozuvchilar qahramonlar timsolini yaratishda varvarizmlardan oqilona foydalanish natijasida xarakterga xos boʻlgan qirralarni mohirona tasvirlab berganlar.

Jargonlar-ayrim kasb egalari, guruhlarining oʻz “tili” boʻlib, faqat ularga xos boʻlgan, boshqalar tushunmaydigan terminlardan foydalaniladi: Masalan: qassoblar, dallollar, oʻgʻrilar nutqi.

“Jargon yoki argo (fr.jargon-buzilgan til soʻzidan)- jargon, abdal tili. Maʼlum guruhga mansub kishilar oʻrtasidagi sunʼiy til boʻlib, u oʻzi xizmat qiluvchi guruh kishilari kasb-koriga oid tushunchalarni anglatuvchi soʻz va iboralardan tashkil topadi”².

Jargonlar adabiy asarda turli guruhlariga mansub qahramonlar tilining haqqoniy chiqishida, asardagi xarakterni boyitishda muhim vazifani bajardi.

Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlardan yana biri vulgarizmlardir. Vulgarizm latincha-dagʻal, qoʻpol maʼnosini anglatadi, adabiy tilda qoʻllanilmaydigan qoʻpol soʻzlar, til meʼyorlariga toʻgʻri kelmaydigan notoʻgʻri tuzilgan jumlar, kishini soʻkishda, haqoratlashda ishlatiladigan soʻzlardir. Bunday soʻzlardan foydalanish soʻzlovchining madaniyatsiz, johil, qoʻpol ekanligini koʻrsatadi. Jurnalist ham, blogger ham oʻz nutqida vulgarizmlardan foydalanmasligi qatʼiy qilib belgilab qoʻyilgan.

Nutqda ortiqcha takrorlanadigan bekorchi-parazit soʻzlar ham adabiy til meʼyorlarining buzilishiga olib keladi. Nutqda bu soʻzlar oʻrinli-oʻrinsiz koʻp takrorlanadi: Masalan: xoʻsh, xoʻp, demak, yaʼni, masalan, olaylik, tak, haligi, anavi kabi.

Kanselyarizmlar-badiiy adabiyotda obrazli individuallashtirishda uslub vositalari sifatida ish qogʻozlari va hujjatlar uslubiga xos soʻz va iboralar. Albatta, maʼlum bir shaklda saqlanadigan soʻz birikmalari, gaplar oʻz oʻrnida juda zarur, ammo bu “qatʼiy shakllar” shablonlar soʻzlashuv nutqiga, badiiy adabiyotga, publitsistikaga oʻtsa madaniy nutqni buzishi mumkin. Oʻrinsiz kanselyarizmlar kengashlar, majlislar, gazeta, radio, televideniyada soʻzlangan nutqlarda koʻplab uchraydi.

² Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati. T., 1983, 120-bet.

Jurnalist va bloggerlar nutqida soflikka erishishi uchun kanselyarizmlardan foydalanishga ham jiddiy e'tibor bermog'i lozim.

Jurnalist va bloggerlar nutqining muhim fazilatlaridan biri-ifodalilik, ta'sirchanlikdir. Ifodali, ta'sirchan nutq tinglovchida qiziqish uyg'otadi, uning ongiga tez yetib boradi, uning e'tibori va qiziqishini qozonadi. Nutqning aloqaviy sifatlari-aniqligi, to'g'riligi, mantiqiyliigi, sofligi (tozaligi) –nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun og'zaki nutqda so'zdagi unli tovushlarni cho'zish orqali shodlanish, taajjub, iztirob, o'kinish, g'azablanish kabi hissiy bo'yoq ifodalanadi, urg'u va so'zlar bo'g'inlarga bo'lib talaffuz qilinadi.

Notiqlar, so'z san'atlari o'z nutqlarini ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida ko'tarinki tantanali uslubda so'zlaydilar. Muhim qarorlar, axborotlar, farmonlar o'qilganda ham bu uslubdan foydalaniladi. Bunda tekis ritm, urg'ularni to'g'ri qo'yish, intonatsion ko'tarinkilik, o'rni bilan pauzaga katta e'tibor beriladi.

Nutq ta'sirchanligini oshirishda turli ma'no noziklariga ega bo'lgan so'z, iboralardan foydalaniladi. Chunki bu til birliklari jo'shqin his-to'yg'uni, ichki kechinmalarni ifodalaydi.

So'zlar tarkibidagi his-hayajon, voqealarga munosabat, erkalash, sevish, kichraytirish, shakllarini qo'shish, so'zlarni o'z va ko'chma ma'nosida ishlatish notiqqa kinoyali nutq, so'z o'yinlari, o'xshatishlar hosil qilishda qo'l keladi. Sinonimlarni juft yoki yonma-yon qo'llash (ohu-zor, faryodu- figon), sinonimik qatordan keraklisini tanlab olish ham ta'sirchanlikni oshiradi.

“Yumshoq sinonim” lar deb ataluvchi evfemizmlar (homiladorlik bilan bog'liq ikkiqat, oy-kuni yaqin), maqol va aforizmlar, inversiya (jozibali nutqni yuzaga keltiruvchi imkoniyatlar: qo'lingni yelkamdan tort-iltimos, so'rash, tort qo'lingni yelkamdan-buyruq, qat'iy talab kabi) me'yorida foydalanish ham nutq ta'sirchanligini oshiradi.

Ta'sirchanlikni ta'minlovchi omillardan sanalgan ifodalilik ham nutq vaziyati bilan bog'liq. O'qituvchining darsdagi nutqi bilan notiqning ma'ruzani tushuntirishdagi ifodaliligi, EHM yuzasidan qilingan ma'ruza bilan xalqaro kengashda qilingan ma'ruza ifodaliligi turlichadir.

“Nutqning ifodaliligi talaffuz urg'u, leksika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, uslub bilan mustahkam aloqadordir”³.

Tilshunos B.N.Golovin nutqda ifodalilikka erishishning yetti shartini ko'rsatadi:

1. Nutq muallifi tafakko'rining erkin, mustaqil bo'lishi, siyqasi chiqqan gaplarni aytmasligi.
2. Nutq muallifi nima haqida so'zlayotgani, kimlarga so'zlayotganini bilishi.
3. Tilni, uning ifoda vositalarini, imkoniyatlarini yaxshi bilishi.

³ Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993, 64-bet.

4. Til uslublariga xos xususiyatlarni, xossalarni bilishi.
5. Nutqiy malaka ustida muntazam va ongli mashq qilishi.
6. So'zlovchining ifodaligi so'zlashga bo'lgan ongli ishonchi, ruhan tayyorgarligi.
7. Tilda nutqning ifodaliligini ta'minlovchi vositalarning bo'lishi.

Tilning ifoda vositalariga troplar tasviriyl shakllar, tasviriyl vositalariga tildagi so'zlar, lug'aviyl-ma'naviyl vositalarga o'xshatish (epitet sifatlash), metafora (istiora ko'chirish), metonimiya (qayta nomlash) kabilar kiradi.

Demak, jurnalist va blogger nutqning sof-toza, ta'sirchan, ifodali bo'lishi uchun-madaniyl nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlardan foydalanmasligi, ifodalilikka erishishning yetti shartini bilishi, tilning tasviriyl vositalarini chuqur o'rganish va undan oqilona foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi, turli ma'no nozikliklariga ega bo'lgan so'z va iboralarni qo'llay olish malakalarini egallashi, sinonimlar va "yumshoq sinonimlar" dan, inversiyadan me'yorida foydalan olishi zarur.

Navoiyl "Mahbub ul-qulub" asarida shunday yozadi: "Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul chiqsa, tilning ofatidir". Tilimiz nutq uchun qurol ekan. "Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham bog'liq. Kamon qanchalik mustahkam bo'lsa, mo'ljalga bexato uradigan bo'lsa, tilning ya'ni o'qning qudrati shunchalik yaqqalroq namoyon bo'ladi"⁴.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, haqiqiyl jurnalist va bloggerlarning nutqi til qudratini namoyon qila olishi nihoyatda zarur jarayondir.

Ijtimoiyl tarmoqlar – bu xalqimizning fikrini erkin ifodalash imkoniyatini taqdim etayotgan platformalardir. Biroq, ularning keng tarqalishi tilimizning buzilishiga olib kelishi mumkin. Ona tilining zaiflashishi – bu milliyl madaniyat va O'zlikni yo'qotishga olib boradigan bir jarayon. Shuning uchun, ona tilimizni asrab-avaylash va rivojlantirish bizning burchimizdir.

REFERENCES

1. Nusratullo Atoulllo o'g'li Jumaxo'ja. Istiqlol va ona tilimiz. T., 1998.
2. Qilichev E, Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
4. Qo'ng'irov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1992.
5. www.ziynet.uz